



[trk], 2020, 1 (1): 13/27

Kitabet Sanatının Bir Örneği Olarak Ali Şir Nevayi'nin  
"Bedayü'l-Bidaye" Divanının Taşkent Nüshası

Tashkent Copy of Alisher Navoi's "Badae'-ul-Bidaya" Divan  
as an Exemplary Example of Book Art

Ташкентский Экземпляр Дивана «Бадаеъ-ул-Бидая»  
Алишера Навои как Образцовый Пример Книжного  
Искусства

Alisher Navoiyning "Badoye'-ul-Bidoya" Devoni Toshkent  
Nusxasi Kitobat San'ati Namunasi Sifatida

Otabek R. Juraboev (Atabek Rustambek oğlu)

Doç. Dr., Ali Şir Nevayi Devlet Edebiyat Müzesi /

Assoc. Prof. Dr, The Alisher Navoi State Museum of Literature /

e-mail: atabekrj@gmail.com Orcid ID: 0000-0001-9997-1488

**Makale Bilgisi / Article Information**

<b>Makale Türü / Article Type</b>	: Araştırma Makalesi / Research Article
<b>Geliş Tarihi / Received</b>	: 19.12.2020
<b>Kabul Tarihi / Accepted</b>	: 26.12.2020
<b>Yayın Tarihi / Published</b>	: 29.12.2020
<b>Yayın Sezonu</b>	: Aralık
<b>Pub Date Season</b>	: December

**Atıf/Cite as:**

**İntihal /Plagiarism:** Bu makale, en az iki hakem tarafından ve bir intihal programında incelenmiş intihal içermediği teyit edilmiştir. / This article has been reviewed by at least two reviewers and in a plagiarism program and has been confirmed to be free of plagiarism. <http://www.trkdergisi.com/>

**Copyright** © Published by Enver KAPAĞAN, Mustafa KUNDAKCI, Yılmaz BACAĞLI and Yalçın ALTAY Since 2020 – Bolu, Turkey. All rights reserved.

## Kitabet Sanatının Bir Örneği Olarak Ali Şir Nevayi'nin "Bedayü'l-Bidaye" Divanının Taşkent Nüshası

### Öz

Ali Şir Nevayi'nin (1441-1501) yazdıkları ve tüm eserleri Timurlular döneminin muazzam bir görüntüsünü yansıtır. Timurlu hükümdarlarının kendilerinin de edebiyata olan ilgileri ve bağlılıkları, sanatsal yaratıcılıkları, ilim ve marifeti destekledikleri ispat talep edilmeyen bir gerçektir. XV. yüzyılın kültürel alanında dönemin önde gelen hükümdarları olan Timurlu mirzalar (şehzadeler) edebiyat ehli veya edebi şahsiyet olarak da kaynaklarda zikredile gelmişlerdir. Bununla birlikte, Timurluların Türk diline ve edebiyata verdikleri önem, kendilerinin de Çağatay Türkçesiyle eserler yazdıkları Ali Şir Nevayi'nin *Mecalisü'n-Nefais* tezkiresinde ve diğer kaynaklarda açıklanmıştır.

Nitekim Nevayi'nin tüm şiirleri toplu halde *Hazayinü'l-Meani* adlı mecmuasında yer almıştır. Ama bu mecmua meydana getirilene kadar Nevayi ilk olarak *Bedayü'l-Bidaye* adlı divanını hazırlamıştı. Bu divanından sonra ise *Nevadirü'n-Nihaye* adlı divanı dünya yüzünü gördü.

*Bedayü'l-Bidaye* divanı Nevayi'nin şiir aleminin anlaşılması ve keşfedilmesinde büyük önem taşır. Bu divanın dünya kitaplıklarında şimdiye kadar altı el yazma nüshası malumdur. Bu nüshalar Paris, Tahran, Londra, Bakü, İstanbul ve Taşkent'teki önde gelen kütüphane ve koleksiyonlarda muhafaza edilir. Söz konusu *Bedayü'l-Bidaye* el yazma nüshaları 1481 - 1486 tarihleri aralığında istinsah edilmiştir. Her bir el yazmanın özelliği var ise de 1486 senesinde Herat'ta bilhassa Ali Şir Nevayi'nin müşahedesinde tertip edilen son, altıncı nüsha günümüzde Özbekistan'ın başkenti Taşkent'te bulunmaktadır. Bu nüsha birçok açıdan incelendiği takdirde Nevayi edebiyat dünyasının laboratuvarına girilmiş ve tetkik edilmiş olur.

Makalede Özbekistan Cumhuriyeti İlimler Akademisi Ali Şir Nevayi Devlet Edebiyat Müzesi koleksiyonunda muhafaza edilen *Bedayü'l-Bidaye* divanının son mükemmel el yazma nüshası üzerinde kitabet sanatı bakımından ayrıntılı olarak durulmaktadır. Bununla birlikte Taşkent nüshasının metinsel ve sanatsal yönleri sorunu ele alınmıştır. Elyazmanın paleografik özellikleri incelenmiş, figüratif ve ender rastlanan bir hat özellikleri üzerinde durulmuş ve Timurlular dönemi kitap süsleme örneği olduğu vurgulanmıştır.

Çalışmada aynı Timurlular dönemi kitabet sanatının bir güzel örneği olarak Ali Şir Nevayi'nin *Bedayü'l-Bidaye* divanının Taşkent nüshası incelenmekte.



Bu nüshadaki şiirlerin metinsel kompozisyonu ve düzenlenmesi ele alınmaktadır.

**Anahtar Kelimeler:** Ali Şir Nevayi, Bedayü'l-Bidaye, divan, kitabet (kitap derlemesi), metin, hattatlık.

## Tashkent Copy of Alisher Navoi's "Badae'-ul-Bidaya" Divan as an Exemplary Example of Book Art

### Abstract

All the works of Alisher Navoi (1441-1501) reflected the majestic appearance of the Timurid era. The fact that the Timurid rulers themselves are also related to literature, art, and education is a fact that does not require proof. In the cultural aura of the XV century, the Timurid princes, who were the rulers of that time, occupied a place in a number of historical and literary sources of both literary figures and literary personalities. At the same time, the Timurids paid special attention to the Turkic language and literature, and they themselves wrote works in the old Uzbek (Chagatai) language. These facts are given in the works of Alisher Navoi "Madzhalis-un-Nafais" and other sources.

In particular, all the verses of Alisher Navoi were included in the compilation "Hazayin-ul-Maani". However, even before the creation of this cullet Navoi made sofa called "Bedayü'l-Bidaye". Later, the "Navadir-un-nihaya" sofa also reappeared.

And the divan "'Bedayü'l-Bidaye" is very important in the study of the poetic world of Navoi. This divan is known to have had six copies in the world's manuscript treasures and collections. These copies are kept in prestigious book collections such as Paris, Tehran, London, Baku, Istanbul and Tashkent. The copies of "Bedayü'l-Bidaye" in question were copied between 1481 and 1486. Despite the fact that each handwritten copy has its own characteristics, in 1486 the last – sixth complete copy was prepared in the city of Herat, ordered directly under the supervision of Alisher Navoi. Currently, this copy is located in Tashkent. Exploring it in several aspects, you can enter the creative laboratory of Navoi and carefully study this heritage.

In this article, special attention is paid to the copy of the sofa "Bedayü'l-Bidaye" stored in the Fund Of the Alisher Navoi state Museum of literature of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan as a book art. And note that this manuscript is the last perfect copy. The text and book art of the Tashkent copy are also studied. It is emphasized that this manuscript is a



kind of a rare example of calligraphy and artistic design of a Timurid book. The textual composition and arrangement of the verses of this copy are commented on.

**Keywords:** Alisher Navoi, Badae-ul-bidaya, divan, kitabat (book compilation), text, calligraphy.

## Ташкентский Экземпляр Дивана «Бадаеъ-ул-Бидая» Алишера Навои как Образцовый Пример Книжного Искусства

### Резюме

Все творчество Алишера Навои (1441-1501) отражало величественный облик эпохи Тимуридов. То, что сами правители Тимуриды тоже имеют отношение и к литературе, и к искусству, и к просвещению – это тот факт, что не требуют доказательств. В культурной ауре XV века Тимуридские принцы, являвшиеся правителями того времени, занимали место в ряде исторических и литературных источников как литературных деятелей, так и литературных личностей. Вместе с тем, особое внимание Тимуриды уделяли большое внимание тюркскому языку и литературе, а сами писали произведения на староузбекском (чагатайском) языке. Эти факты даны в произведение Алишера Навои “Маджалис-ун-нафоис” и других источниках.

В частности, все стихи Алишера Навои вошли в сборник “Хазойин-ул-Маони”. Однако еще до создания этого куллията Навои изготовил диван под названием “Бадоеъ-ул-Бидая”. Позже вновь появился и диван “Наводир-ун-нихая”.

А диван “Бадоеъ-ул-Бидая” очень важен в изучении поэтического мира Навои. Известно, что у этого дивана было шесть копий в мировых рукописных сокровищах и фондах. Эти копии хранятся в престижных книжных фондах таких как Парижа, Тегерана, Лондона, Баку, Стамбула и Ташкента. Экземпляры “Бадоеъ-ул-Бидая”, о которых идет речь, были переписаны в период с 1481 по 1486 год. Несмотря на то, что каждый рукописный экземпляр имеет свои особенности, в 1486 году в городе Герате было стоговлено последний – шестой полный экземпляр, упорядоченный непосредственно под наблюдением Алишера Навои. В настоящее время этот экземпляр находится в Ташкенте. Исследуя его в нескольких аспектах, можно войти в творческую лабораторию Навои и тщательно изучат это наследие.



В данной статье особое внимание уделяется экземпляру дивана "Бадоёъ-ул-Бидая" хранящемуся в фонде Государственного музея литературы им. Алишера Навои Академии Наук Республики Узбекистан как книжное искусство. И отмечаться, что это рукопись является последнем совершенном экземпляре. Также изучается текст и книжное искусство Ташкентского экземпляра. Подчеркнуто, что этот рукопись является своего образным и редким примером каллиграфии и художественного оформления книги эпохи Тимуридов. Прокомментировано текстологическое сложение и расположение стихов этого экземпляра.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, Бадаёъ-ул-бидая, диван, китабат (книгосоставление), текст, каллиграфия.

## Alisher Navoiyning "Badoye'-ul-Bidoya" Devoni Toshkent Nusxasi Kitobat San'ati Namunasi Sifatida

### Qisqacha bayon

Alisher Navoiyning (1441-1501) butun ijodiyoti Temuriylar davrining ulug'vor ko'rinishini aks ettirgan edi. Temuriy hukmdorlarining o'zlari ham adabiyotga aloqadorlik va muhabbatlari, san'atkorona asarlar yaratganliklari va ma'rifatsevarliklari isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. XV asrning madaniy aurasida davrning oldi hukmdorlari bo'lgan Temuriy mirzolar (shahzodolar) adabiyot ahli yoki adabiy shaxsiyatlar sifatida ham bir qancha tarixiy va adabiy manbalarda o'rin olganlar. Shu bilan birga, Temuriylarning turkiy til va adabiyotga alohida e'tibor berishlari, o'zlarining esa eski o'zbek (chig'atoy) tilida asarlar yozganliklari Alisher Navoiyning "Majolisun-nafois" tazkirasida va boshqa manbalarda berilgandir.

Xususan, Alisher Navoiyning barcha she'rlari to'plam holida "Xazoyinul-maoniy" majmuasidan o'rin olgan. Biroq, bu majmua yaratilgunga qadar ham Navoiy "Badoye'-ul-Bidoya" nomli devonini tayyorlagan edi. Keyinchalik yana "Navodirun-nihoya" devoni ham dunyo yuzini ko'rdi.

"Badoye'-ul-Bidoya" devoni esa Navoiyning she'riyat olamini kashf etishda juda ham muhimdir. Bu devonning dunyo qo'lyozma xazinalari va fondlarida olti qo'lyozma nusxasi borligi ma'lum bo'lgan. Ushbu nusxalar Parij, Tehron, London, Boku, Istanbul va Toshkentdagi e'tiborli kitob fondlarida saqlanmoqdadir. So'z yuritilayotgan "Badoye'-ul-Bidoya" nusxalari 1481 yildan e'tiboran 1486 yilga qadar kitobat qilingan. Har bir qo'lyozma nusxaning o'ziga xos jihatlari bo'lsa-da, 1486 yil Hirot shahrida bevosita Alisher Navoiyning nazorati ostida tartib berilgan so'nggi – oltinchi



to'la nusxa hozirgi kunda O'zbekistonning boshkenti Toshkentdadir. Uni bir qancha jihatlardan tadqiq etilsa Navoiy ijodiy laboratoriyasiga kirilgan va uni atroflicha o'rganilgan bo'linadi.

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondida saqlanayotgan "Badoye'ul-bidoya" devonining oxirgi mukammal qo'lyozma nusxasi ustida kitobat san'ati nuqtai nazaridan maxsus to'xtanilmoqda. Shuningdek, Toshkent nusxasining matniy va kitobat san'ati jihatlari ko'rsatilmoqda. Qo'lyozmaning paleografik afzal jihatlari, bezalishi va xattiy xususiyatlari ta'kidlangan va bu manbaning Temuriylar davri kitobat san'atining namunasi ekanligiga urg'u berilmoqda.

**Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, Badoye'-ul-bidoya, devon, kitobat, matn, xattotlik



## Kirish/ Giriş / Introduction / Вступление

Temuriylar davri (XIV asr oxirgi choragidan XVI asr boshigacha) tarixda fan, madaniyat, adabiyot va san'at taraqqiy etgan davrdir. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Shohrux mirzo, Ulug'bek mirzo, Boysunqur mirzo, Sulton Husayn mirzo va boshqa temuriyzodalar nafis kitoblarga va umuman kitobat san'atiga alohida e'tibor berishgan. Dastlab Samarqand, so'ngra Hirotida boshqa san'atlar qatori kitobatchilik ham rivoj topdi. Hirotidagi adabiyot va san'at ahlining boshida Alisher Navoiy (1441-1501) turgan bo'lib, umuman o'z davri tarixida Navoiy siymosi porloq quyosh hamda nur sifatida ko'rilgan [Co'raboyev, 2016: 18-28]. Bevosita uning homiyligi va ko'magi bilan Sulton Ali Mashhadiy, Mirak Naqqosh, Mavlono Yoriy, Kamoliddin Behzod kabi ulkan san'atkorlar kitobat san'atining taraqqiy etishiga ulkan hissa qo'shdilar. 1469-1506 yillar davomida Xurosonda hukmronlik qilgan Sulton Husayn mirzoning o'zi ham bu san'atning rivojlanishiga alohida e'tibor berdi. XIV asr – Temuriylar davrida Samarqand, Tabriz, Sheroz badiiy qo'lyozma maktablari mavjud bulib, bular orasida Hirot maktabi o'zining realistik tendensiyasi, janrlarining turtiligi va katta mahorati bilan dong taratgan edi. Biz aynan shu Hirot kitobat san'atining maktabiga oid bir qo'lyozma ustida to'xtalmoqchimiz. Bu Amir Nizomiddin Alisher Navoiyning "Badoye'-ul-bidoya" devonining nodir qo'lyozma nusxasidir.

## "Badoye'-ul-bidoya" devonining qo'lyozmalari

"Badoye'-ul-bidoya" Alisher Navoiy ijodiyotida alohida mavqega ega adabiy manba bo'lib, u shoirning "Xazoyin-ul-maoniy" majmua'sini tuzgunga qadar (1492-1498 y.y.) bevosita o'zi tarafidan tasnif etilgan va maxsus debocha bilan ta'minlangan birinchi devonidir. Navoiy bu devonni 1469 yildan keyin Sulton Husayn mirzoning topshirig'i bilan tuzgan. Keyinchalik esa "Xazoyin-ul-maoniy" tarkibidagi to'rt devonga (G'aroyib-us-sig'ar, Navodir-ush-shabob, Badoye-ul-vasat, Favoyid-ul-kibar) mazkur kulliyotdagi she'rlarni taqsim qilib joylashtirgan [Suleymanov, 1961: I]. Bu bilan Navoiy "nafaqat turkiy balki, jahon devonchiligining ham eng yorqin va mukammal namunasi bo'lmish asarlarini yaratdi" [Co'raboyev, 2017: 71].

"Badoye'-ul-bidoya"ning hozircha fanga olti qo'lyozmasi ma'lum bo'lib, barchasi Hirotida ko'chirilgan, deya taxmin qilinadi. Ular Parij, London, Boku, Tehron, Istanbul va Toshkentdagi kitob fondlarida saqlanadi.

Masalan, Parijdagi Fransiya Milliy kutubxonasida (№746) saqlanuvchi nusxasi 1481 yil, Tehrondagi Islom sho'ro majlisi kutubxonasida (№14197) saqlanuvchi nusxasi 1483 yil, Londondagi Britaniya muzeyida (№401) saqlanuvchi nusxasi ham 1483 yil, Bokudagi Ozarbayjon FA Qo'lyozmalar



fondidagi (№3010) nusxa 1484 yil va Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasida (Ayasofya №3981) saqlanuvchi nusxa bo'lsa 1484-85 yilda ko'chirilgan [Erkinov, 2018: 56; Turdialiev, 2018: 62].

Devonning O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyining "Nodir qo'lyozma va noyob bosma kitoblar" fondida 216 raqami ostida saqlanuvchi qo'lyozmasini – Toshkent nusxasi deya yuritiladi. Qo'lyozmani ilk bora manbashunos M.Hakimov "Toshkent nusxasi" deya ta'kidlab, ilmiy tavsifini bergan [Hakimov, 1983: 40-41; Katalog, 1989: 15].

Bu qo'lyozma boshqalaridan birmuncha jihatlari bilan ajralib turadi. Aytish mumkinki, "Badoye'-ul-bidoya"ning mavjud nusxalari ichida eng to'la va mukammali ushbu Toshkent qo'lyozmasi hisoblanadi.

Mazkur manba ham Navoiy hayotlik vaqtida (1486 yil) ko'chirilgan bo'lib, Hirot xattotlik va kitobat san'atining noyob namunalaridan biridir. "XV asr kitobat san'ati ustalari ijodining bir-biri bilan uzviy bog'lanishi va beandoza monandligi temuriylar davrining yuqori estetik talablariga javob bera oladigan yagona badiiy sintezi – yangi kitobat san'at uslubini vujudga keltirdi" [Sulaymon, 1969: 6].

Aynan shu "yangi kitobat san'at uslubini" qo'llangan holda yaratilgan mazkur manba badiiy qo'lyozma san'atining bebaho namunasi bo'lishi bilan birga fan uchun ham katta ahamiyatga molikdir. Inchunin, ushbu nusxa Navoiy she'riyatining ijodiy takomili, shoir ijodiy laboratoriyasi va devonlarining tasnif tarixini o'rganishda noyob manbalardan biri hamdir [Salohiy, 2004: 35-52].

## **"Badoye'-ul-bidoya" Toshkent nusxasining kitobat va tuzilish xususiyati**

Avvalo, qo'lyozmaning kitobat jihatlari haqida.

Bu qo'lyozma o'z davrining kitobchilik an'analari asosida tartib berilgan bo'lib, mumtoz devon tuzilishning eng ilg'or jihatlari ko'p jihatdan o'zida aks ettiradi. Navoiy uni o'zigacha bo'lgan devonchilik an'alarini yaxshi o'rgangan va chuqur o'zlashtirgan asnoda tartib berganligi sezilib turadi.

Fikrimizcha, ushbu qo'lyozmani ko'chirish uchun muallifning o'zi kotib-xattotga buyurtma bergan. Bu xattot nasta'liq xatining ustasi – Ali bin Nur




Devonning bu nusxasida ko'chirgan kotib bilan birga ko'chirilish ta'rixi va joyi haqida ham aniq ma'lumot berilgan. Qo'lyozmaning 216a varag'ida





sakkiz yuz to'qson birinchi yil jumod-ul-avval oyining o'ninchi kunida Hirot shahrida Ali bin Nur devonni ko'chirib tugatgani ta'kidlangan.



Hijriy qamariy 891 yil 10 jumod-ul-avvalni milodiyga aylantirilganda esa 1486 yilning 15 may kuni kelib chiqadi.

Qo'lyozmadagi ja'mi varaqlar soni – 216 ta.

Qo'lyozma o'lchami – 15x23 sm; matn o'lchami – 9x16 sm.

Qo'lyozma Hirotning a'lo navli novvotrang, qalin ipak qog'oziga kitobat qilingan. Matn qora siyohda, Hirot badiiy nasta'liq xati bilan go'zal tarzda bitilgan. Matn har sahifaga ikki ustun holida 15 satrdan mahorat bilan joylashtirilgan.

Qo'lyozmaning badiiy bezagi ko'p emas. Aytish zarurki, oz va sokin tarzda bezalgan bu qo'lyozma o'ziga xos tarzda kitobat san'ati namunasi bo'la olgan. 12b varaqda (devon she'rlari boshlanmasida) berilgan g'oyat nafis zarhal lavh va matn uchun nazokat bilan ishlangan jadval bor. Jadval chiziqlari asosan ikki zarhal yo'ldan tashkil topib, atrofiga ko'k (lojuvard) chiziq ham tortilgan. Qo'lyozmaning boshidan oxiriga qadar ushbu nafis jadval davom etgan.



Qo'lyozning 12b va 216a sahifalarida muhrlar bor. Biroq ularning yozuvi xira va biroz bo'yalgani sababli o'qib bo'lmaydi.

Sahifalarga poygirilar kamdan-kam o'rinlarda qo'yilgan.

Kitobning muqovasi ham maxsus buyurtma asosida tayyorlangan charm muqova bo'lib, u dastlabki ko'rinishida asosan yaxshi saqlangan. U yetti tamg'a-naqshli, jigarrang holatdadir.




Qo'lyozma deyarli yaxshi saqlangan. Faqat, ayrim sahifalarda siyoh bo'yalgan va dog' bosgan o'rinlar mavjud. Shuningdek, qo'lyozma bir marotaba ta'mir qilinib, yirtilgan va juzvdan ko'chgan varaqlari tiklangan. Ammo kitobning oxirida – kichik janrlar yozilgan o'rinlarda kitobat vaqtida ba'zi varaqlarning o'rni almashib qolgan.


Mazkur devon qo'lyozmasining tarkibi esa qo'yidagicha:

Nusxa nasriy debocha bilan boshlangan bo'lib, u qo'lyozmaning 1b–11a varaqlaridan o'rin olgan.

Debocha boshlanishi (1b varaq):




Debocha oxiri (11a varaq):




Devondan o'rin olgan she'rlar tarkibi:

- 1) G'azallar – 670 ta (12b–177a varaqlar);
- 2) Mustazodlar– 3 ta(177a–178a varaqlar);
- 3) Musaddaslar – 2 ta (178b–180a varaqlar);
- 4) Muxammaslar – 5 ta (180a–183a varaqlar);
- 5) Tarjibandlar– 3 ta (183a–196b varaqlar);
- 6) Qit'alar – 49 ta (196b–198a va 207b varaqlar);
- 7) Ruboiylar– 83 ta (205b–207a varaqlar);
- 8) Chistonlar – 10 ta (205b–207a varaqlar);
- 9) Muammolar – 52 ta (209a–212a varaqlar);
- 10) Tuyuqlar – 10 ta (212a-b varaqlar);
- 11) Fardlar – 53 ta (213a-216a varaqlar).

Boshlanishi (12b varaq):



Oxiri (216a varaq):



### Toshkent nusxasining matn afzalligi

Ushbu "Badoye'-ul-bidoya" devoni Toshkent nusxasining matniy jihatdan afzalligi quyidagilarda ko'rinadi.

Birinchidan, ushbu nusxaning xati g'oyatda ravon va go'zal bitilgan.

Ikkinchidan, uning matnida chalkashlik juda kam bo'lib, keskin buzilgan va she'r ma'nosiga ziyon yetkazgan o'rinlar ham deyarli uchramaydi.

Ucincidan, unda asosiy matndan tushib qolgan ba'zi g'azal va baytlar devon kitobatidan so'ng sahifalar hoshiyasiga yozib qo'yilganidir. Ular – 33b, 37b, 60b, 69b, 90b, 93b-94a, 95b, 96b, 105b-106a, 129b, 142b, 143b, 149b, 161a-b, 181b, 182a-b, 183b-184a, 206b varaqlardan o'rin olgan. Ularning bir qismi kotib (Ali bin Nur)ning qalami bilan yozilgani bilinadi.

Misol uchun,

Yuzi gulchehra soqiyning tarab hukmig'a tug'rodur,


Yuzinda may guli ul yorlig' uzra ol tamg'odur –




deya boshlangan g'azalning maqta'si 69b varaqda tushib qolgan. Xuddi shu sahifaning hoshiyasiga, ko'k jadvalga olingan holda, qiyalatib so'nggi bayt kotib tarafidan biroz maydaroq qilib yozib qo'yilgan.

Navoiy, dayr piri go'yokim shahr shayxig'a

Fano jomi ichurdikim, xarobot ichra g'avg'odur.



Yoki, devonda 594-g'azal bo'lib kelgan "O'lsun" radifli 11 baytli she'rning yettinchi bayti ham jadvaldagi asosiy matndan tushib qolgan. Uni ham so'ngra hoshiyaga, ko'k jadvalchaga olgan holda, kotib qiyalatgan shaklda yozib qo'ygan.



Asosiy matndan o'rin olmay qolgan yaxlit bir necha g'azal ham hoshiyalarga ko'chirib chiqilgan. Lekin bu g'azallarning barchasini yozuvi ham devon xattoti Ali ibn Nurning xattiy uslubiga uyg'un, deb bo'lmaydi. Ayrimlari tez va shoshilib yozilgan. Ba'zilar esa ravon emas. Jadvalga olingan matndagi harflarning shakliy tuzilishida ham hoshiyalardagi bu yozmalar bilan birmuncha farqlar seziladi. Shunga ko'ra, hali bu borada matniy tadqiqatlar davom ettirilishi taqozo etiladi.

## Xulosa/ Sonuç / Conclusions / Заключение

Yuqorida ko'rib o'tilgan va yana boshqa ko'pgina jihatlariga ko'ra hazrat Alisher Navoiyning "Badoye'-ul-bidoya" devoni Toshkent nusxasi matnshunoslik va adabiy manbashunoslik nuqtai nazaridan g'oyat qimmatli manba hisoblanadi. Uni yanada atroflicha o'rganish va izchil ravishda tekstologik qiyosiy izlanishlar olib borish navbatdagi vazifalardandir.



## Adabiyotlar / Kaynakça / Reference / Литература

- Co'raboyev, O. (2016). *Navoiy va tarix*. Risola, Tamaddun, Toshkent.
- Co'raboyev, O. (2017). *Matnning matnosti sirlari*. Monografiya, Tamaddun, Toshkent.
- Erkinov, A. (2018). *Badoye'-ul-bidoya"ning Navoiy davrida ko'chirilgan va yangi aniqlangan sanali beshinchi qo'lyozmasi*. "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzuidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. Turon-Iqbol, Toshkent, s.51-57.
- Hakimov, M. (1983). *Navoiy asarlari qo'lyozmalarining tavsifi*. Fan, Toshkent.
- Katalog (1989). *Katalog fonda instituta Rukopisey*, Cilt 1, Fan, Tashkent.
- Salohiy, D. (2004). *"Badoye'-ul-bidoya" malohati*. Fan, Toshkent.
- Suleymanov, X. (1955-1961). *Teknologicheskoe issledovanie liriki Alishera Navoi*. Tom 1-3. *Dissertatsiya na soiskanie uchenoy stepeni doktora filologicheskix nauk*. Tashkent-Moskva.
- Sulaymon, H. (1969). *Temuriylar davri badiiy qo'lyozma va xattotlik san'atini o'rganish masalalari*. Toshkent.
- Turdialiev, A.-Erkinov, A. (2018). *Badoye'-ul-bidoya"ning Navoiy davrida ko'chirilgan va yangi aniqlangan sanali beshinchi qo'lyozmasi*. "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzuidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. Turon-Iqbol, Toshkent, s.57-62.

